Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

O‘ZBEK VA INGLIZ MATBUOTI MATERIALLARI ASOSIDA TADQIQOT KORPUSINI SHAKLLANTIRISH VA DISKURSIV TAHLIL METODOLOGIYASI

Fayyoza Kamolova Mirza qizi
Osiyo texnologiyalar universiteti, magistr
shaxzod19950109@icloud.com
+998 94 657 03 26
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20378216

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek va ingliz matbuoti materiallari asosida tadqiqot korpusini shakllantirish hamda diskursiv tahlil metodologiyasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Maqolada korpus yaratish bosqichlari, matn tanlash mezonlari, lingvistik va kognitiv tahlil usullari ko‘rib chiqiladi. Diskursiv tahlilning kritik, sotsiolingvistik va pragmatik yondashuvlari tavsiflanadi. Ikki tilli matbuot materiallarini qiyosiy o‘rganish orqali milliy va global diskurslarning o‘zaro ta’siri aniqlanadi. Natijalar siyosiy, ijtimoiy va madaniy kontekstlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.
Kalit so‘zlar: tadqiqot korpusi, diskursiv tahlil, o‘zbek matbuoti, ingliz matbuoti, qiyosiy tahlil, kritik diskurs tahlili, metodologiya.

Annotation. This article focuses on developing a research corpus based on Uzbek and English press materials and proposes a discourse analysis methodology. It outlines corpus creation stages, text selection criteria, and linguistic-cognitive analysis methods. The study describes key discourse analysis approaches, including critical discourse analysis, sociolinguistic and pragmatic methods. By comparatively analyzing bilingual press materials, the author identifies interactions between national and global discourses. The findings are significant for analyzing political, social, and cultural contexts.
Keywords: research corpus, discourse analysis, Uzbek press, English press, comparative analysis, critical discourse analysis, methodology.

Аннотация. Данная статья посвящена формированию исследовательского корпуса на основе материалов узбекской и английской прессы и разработке методологии дискурсивного анализа. Рассматриваются этапы создания корпуса, критерии отбора текстов, лингвистические и когнитивные методы анализа. Описаны основные подходы дискурсивного анализа — критический дискурс-анализ, социолингвистические и прагматические методы. Путём сравнительного анализа двуязычных пресс-материалов выявляется взаимодействие национального и глобального дискурсов. Результаты важны для анализа политических, социальных и культурных контекстов.
Ключевые слова: исследовательский корпус, дискурсивный анализ, узбекская пресса, английская пресса, сравнительный анализ, критический дискурс-анализ, методология.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik va media tadqiqotlarida ommaviy axborot vositalari materiallarini tizimli o‘rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Matbuot nafaqat axborot yetkazib beruvchi, balki jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi, muayyan mafkura va qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kuchli diskursiv vositadir. Turli tillardagi matbuot materiallarini qiyosiy o‘rganish esa milliy va global diskurslar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek va ingliz matbuoti materiallari asosida tadqiqot korpusini shakllantirish hamda uni diskursiv tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, o‘zbek va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo‘lib, ularning matbuot diskursida qo‘llaniladigan lingvistik vositalar, argumentatsiya usullari va ta’sir mexanizmlari sezilarli darajada farqlanadi. Ikkinchidan, globallashuv sharoyitida ingliz matbuoti ko‘pincha xalqaro

axborot makonida dominant rol o‘ynasa, o‘zbek matbuoti milliy qadriyatlar va mahalliy kontekstni aks ettiradi. Ushbu ikki diskursning o‘zaro ta’sirini o‘rganish translatologiya, lingvokulturologiya va siyosiy lingvistika sohalari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Maqolaning asosiy maqsadi – o‘zbek va ingliz matbuoti materiallari asosida reprezentativ tadqiqot korpusini shakllantirish bosqichlarini belgilash va uni diskursiv tahlil qilishning samarali metodologiyasini taklif etish. Ushbu maqsad doirasida quyidagi vazifalar ko‘zda tutilgan: korpus tuzishning tanlov mezonlarini ishlab chiqish; matnlarni lingvistik va kognitiv jihatdan tahlil qilish usullarini belgilash; diskursiv tahlilning kritik, sotsiolingvistik va pragmatik yondashuvlarini moslashtirish; ikki tilli materiallarni qiyosiy o‘rganish samaradorligini asoslash. Tadqiqotning predmeti – o‘zbek va ingliz matbuot matnlarining diskursiv xususiyatlari, obyekti esa ushbu matnlardan tuzilgan ikki tilli korpusdir. Maqolada korpus lingvistikasi va diskurs tahlilining zamonaviy metodlari uyg‘unligiga asoslangan kompleks metodologiya taklif etiladi. Ushbu metodologiya nafaqat matnlarning til sathidagi (leksik, grammatik, sintaktik) xususiyatlarini, balki ularning ijtimoiy-madaniy, siyosiy va pragmatik jihatlarini ham yoritishga imkon beradi. Shuningdek, maqolada muallif tomonidan shakllantirilgan korpusning hajmi, matnlar xronologiyasi, janr xilma-xilligi va mavzuviy yo‘nalishlari haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Tadqiqot natijalari media lingvistika, qiyosiy diskursiv tahlil va tilshunoslikning amaliy yo‘nalishlari uchun manba vazifasini o‘tashi mumkin.[1]

Mazkur tadqiqotda o‘zbek va ingliz matbuoti diskursida ma’no konstruktsiyasining lingvistik xususiyatlarini aniqlash maqsadida ommaviy axborot vositalarida chop etilgan publitsistik matnlar asosida tadqiqot korpusi shakllantirildi. Tadqiqot korpusi sifatida gazeta va jurnal materiallari tanlab olinib, ular lingvistik va diskursiv jihatdan tahlil qilindi. Korpusni shakllantirish jarayonida matnlarning mavzuviy yo‘nalishi, kommunikativ vazifasi hamda janr xususiyatlari hisobga olindi. Tadqiqot korpusi ikki asosiy qismdan iborat bo‘lib, ular o‘zbek matbuoti materiallari hamda ingliz matbuoti materiallaridan tashkil topgan[2]. O‘zbek matbuoti korpusi sifatida respublika miqyosida keng tarqalgan gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar tanlab olindi. Ushbu matnlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy mavzularga bag‘ishlangan bo‘lib, ular ommaviy axborot vositalari diskursining muhim namunalarini tashkil etadi. Tadqiqot uchun tanlab olingan o‘zbek matbuoti materiallari turli davrlarda chop etilgan bo‘lib, ular jamiyatdagi muhim voqea-hodisalarni yorituvchi publitsistik matnlarni o‘z ichiga oladi. Ingliz matbuoti korpusi esa xalqaro miqyosda keng tarqalgan ingliz tilidagi gazeta va jurnallardan tanlab olingan maqolalardan iborat. Bu matnlar ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy masalalarni yorituvchi publitsistik materiallardan tashkil topgan. Ingliz matbuoti korpusini shakllantirish jarayonida nufuzli xalqaro nashrlar materiallari tanlab olindi. Ushbu matnlar global axborot makonida keng auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lib, media diskursning muhim namunalarini aks ettiradi.

Tadqiqot korpusini shakllantirishda matnlarning janr xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Tadqiqot doirasida gazeta maqolalari, tahliliy materiallar, intervyular hamda publitsistik sharhlar tanlab olindi. Bu janrlar ommaviy axborot vositalari diskursida keng qo‘llaniladigan matn turlarini tashkil etadi. Shuningdek, ushbu janrlar voqea-hodisalarni talqin qilishda turli lingvistik vositalardan foydalanish imkonini beradi. Tadqiqot korpusiga kiritilgan matnlar hajmi va tarkibi ham muhim mezonlar asosida belgilandi. Har ikki til matbuotidan tanlab olingan materiallar umumiy hajmi bir necha yuz sahifani tashkil etadi. Matnlar hajmi tadqiqot uchun yetarli lingvistik materialni ta’minlash maqsadida tanlab olindi. Shu bilan birga, korpus tarkibidagi matnlarning mavzuviy xilma-xilligi ham ta’minlandi. Tadqiqot korpusining muhim xususiyatlaridan biri uning reprezentativligi hisoblanadi. Reprezentativ korpus tadqiqot obyekti bo‘lgan diskursning asosiy xususiyatlarini aks ettirishi kerak. Shu sababli korpusni shakllantirish jarayonida turli mavzular, janrlar va kommunikativ vaziyatlarni qamrab

[1] Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan, 1992. – 78 b.
[2] Mahmudov N. O‘zimiz va tilimiz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997. – 76 b.

oluvchi matnlar tanlab olindi. Bu esa o‘zbek va ingliz matbuoti diskursida ma’no konstruktsiyasining umumiy lingvistik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.[3]

Tadqiqot korpusini tanlash jarayonida matnlarning autentiqligi ham muhim mezon sifatida hisobga olindi. Tadqiqot uchun faqat ommaviy axborot vositalarida rasmiy ravishda chop etilgan matnlar tanlab olindi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot korpusida tanlangan matnlar dastlab tematik jihatdan tasniflandi. Matnlar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy mavzularga ko‘ra guruhlarga ajratildi. Bunday tasniflash tadqiqot jarayonida matnlarning semantik va diskursiv xususiyatlarini aniqroq tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot korpusida tanlangan matnlar lingvistik birliklar nuqtai nazaridan ham o‘rganildi. Matnlarda ishlatilgan leksik birliklar, sintaktik konstruktsiyalar, stilistik vositalar va pragmatik elementlar alohida tahlil qilindi. Bu birliklar orqali matbuot diskursida ma’no konstruktsiyasining qanday shakllanishi aniqlanadi. Tadqiqot korpusining shakllanishi dissertatsiya maqsadiga mos ravishda amalga oshirildi. Tanlab olingan matnlar o‘zbek va ingliz matbuoti diskursida qo‘llaniladigan lingvistik vositalar va kommunikativ strategiyalarni o‘rganish imkonini beradi. Shu asosda tadqiqot korpusi dissertatsiya doirasida olib boriladigan qiyosiy tahlil uchun muhim empirik material vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasining nazariy asosini tanqidiy diskurs tahlili tamoyillari tashkil etadi. Tanqidiy diskurs tahlili til birliklari orqali ifodalanadigan ijtimoiy va ideologik ma’nolarni aniqlashga qaratilgan metodologik yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuv diskursni nafaqat lingvistik hodisa sifatida, balki ijtimoiy kommunikatsiya jarayonining mahsuli sifatida ham o‘rganadi. Shu sababli tadqiqot jarayonida matbuot diskursida qo‘llaniladigan lingvistik vositalar, kommunikativ strategiyalar va ideologik konstruktsiyalar tahlil qilindi. Tadqiqotda qo‘llanilgan asosiy metodlardan biri qiyosiy tahlil metodidir. Ushbu metod yordamida o‘zbek va ingliz matbuoti diskursida qo‘llaniladigan lingvistik vositalar taqqoslab o‘rganildi. Qiyosiy tahlil natijasida har ikki til matbuotida ma’no konstruktsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘xshashliklari va farqlari aniqlanadi. Bu metod turli til tizimlariga mansub matnlarni solishtirish orqali diskursning umumiy va xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasida diskurs tahlili metodi ham muhim o‘rin egallaydi. Diskurs tahlili matnni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki ijtimoiy kommunikatsiya jarayonining bir qismi sifatida o‘rganishga imkon beradi. Bu metod yordamida matnning semantik tuzilishi, kommunikativ maqsadi hamda ideologik yo‘nalishi tahlil qilindi. Diskurs tahlili orqali matnda ishlatilgan til vositalarining kommunikativ vazifasi aniqlanadi. Tadqiqotda lingvistik tahlil metodlari ham keng qo‘llanildi. Ushbu metodlar matnning leksik, sintaktik va stilistik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Leksik tahlil orqali matnda ishlatilgan so‘zlarning semantik xususiyatlari va ularning ma’no konstruktsiyasini shakllantirishdagi roli aniqlanadi. Sintaktik tahlil esa gap tuzilishi va sintaktik konstruktsiyalarning kommunikativ vazifasini o‘rganishga qaratilgan. Stilistik tahlil orqali matnda qo‘llanilgan tasviriy vositalar, metaforalar va baholovchi birliklarning matn mazmunini shakllantirishdagi o‘rni aniqlanadi[4]. Tadqiqot metodologiyasida pragmatik tahlil ham muhim ahamiyatga ega. Pragmatik tahlil nutqning kommunikativ maqsadi, nutq ishtirokchilarining niyati hamda kontekstning ta’sirini o‘rganadi. Media diskursda presuppozitsiya, implikatsiya va boshqa pragmatik vositalar orqali muallif auditoriyaga muayyan fikrni bilvosita yetkazadi. Shu sababli tadqiqot jarayonida matnda qo‘llanilgan pragmatik elementlar ham alohida tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasida kontekstual tahlil metodi ham qo‘llanildi. Ushbu metod matnni uning ijtimoiy va madaniy konteksti bilan bog‘liq holda o‘rganishga imkon beradi. Ommaviy axborot vositalari diskursi ko‘pincha muayyan ijtimoiy sharoitda shakllanadi, shu sababli matnni to‘liq tushunish uchun uning kontekstini ham hisobga olish zarur. Shuningdek, tadqiqotda semantik tahlil metodidan ham

[3] Biber D. Variation Across Speech and Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – 212 p.

[4] Fairclough N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. – London: Routledge, 2014. – 291 p.

foydalanildi. Bu metod yordamida matnda ifodalangan ma’no strukturalari va ularning lingvistik vositalar orqali shakllanishi o‘rganildi. Semantik tahlil natijasida matn tarkibida ishlatilgan leksik birliklar va ularning ma’no konstruktsiyasini shakllantirishdagi roli aniqlanadi.

Tadqiqot jarayonida tanlangan matnlar bir necha bosqichda o‘rganildi. Birinchi bosqichda matnlarning umumiy tematik yo‘nalishi aniqlanib, ularning kommunikativ maqsadi o‘rganildi. Ikkinchi bosqichda matnlarning lingvistik xususiyatlari, ya’ni leksik birliklar, sintaktik konstruktsiyalar va stilistik vositalar tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda esa matnlarning ideologik mazmuni va ma’no konstruktsiyasini shakllantirish mexanizmlari aniqlanadi. Mazkur metodologik yondashuv o‘zbek va ingliz matbuoti diskursida ma’no konstruktsiyasining lingvistik xususiyatlarini kompleks tarzda o‘rganish imkonini beradi. Qiyosiy tahlil orqali har ikki til matbuotida qo‘llaniladigan kommunikativ strategiyalar va lingvistik vositalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tahlili yo‘nalishining rivojlanishida ingliz tilshunosi Norman Fairclough muhim o‘rin egallaydi. U tanqidiy diskurs tahlili nazariyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Fairclough tilni nafaqat kommunikativ vosita sifatida, balki ijtimoiy jarayonlar, ideologik qarashlar va hokimiyat munosabatlarini shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, diskurs jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til orqali ijtimoiy voqelik shakllantiriladi va talqin qilinadi. Fairclough nazariyasining asosiy g‘oyalaridan biri shundan iboratki, diskurs ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlar, madaniy qadriyatlar va ideologik qarashlar bilan uzviy bog‘liqdir. Til orqali voqelikni tasvirlash jarayonida muallif ma’lum nuqtai nazardan foydalanadi va shu orqali muayyan ideologik pozitsiyani ifodalaydi. Ayniqsa ommaviy axborot vositalari diskursida bu jarayon yaqqol namoyon bo‘ladi. Gazeta va jurnal materiallari orqali voqealar ma’lum talqin asosida yoritiladi va jamoatchilik fikri shakllantiriladi.

Fairclough diskursni o‘rganishda til, jamiyat va ideologiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarga alohida e’tibor qaratadi. Uning nazariyasiga ko‘ra, til orqali ijtimoiy tuzilmalar mustahkamlanishi yoki o‘zgarishi mumkin. Shu sababli diskurs tahlilida til birliklarini faqat lingvistik nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq holda o‘rganish zarur. Fairclough tanqidiy diskurs tahlilining uch bosqichli modelini ishlab chiqqan. Bu model diskursni kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu model quyidagi uch asosiy bosqichdan iborat: matn tahlili, diskursiv amaliyot tahlili va ijtimoiy amaliyot tahlili.[5]

Ijtimoiy amaliyot tahlili Fairclough modelining uchinchi bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda diskurs orqali ifodalanayotgan ijtimoiy munosabatlar, hokimiyat tuzilmalari va ideologik qarashlar tahlil qilinadi. Masalan, matbuot diskursida muayyan voqealar qanday talqin qilinayotgani jamiyatdagi siyosiy yoki ijtimoiy pozitsiyalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy amaliyot tahlili diskursning kengroq ijtimoiy kontekstini tushunishga yordam beradi. Fairclough nazariyasida ideologiya tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Ideologiya jamiyatda hukmron bo‘lgan qarashlar, qadriyatlar va tasavvurlar tizimini ifodalaydi. Diskurs orqali ushbu qarashlar keng auditoriyaga yetkaziladi va mustahkamlanadi. Shu sababli tanqidiy diskurs tahlilida ideologik konstruktsiyani aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Fairclough media diskursni o‘rganishda til birliklarining ideologik funksiyasiga alohida e’tibor qaratadi. Ommaviy axborot vositalarida ishlatiladigan leksik birliklar, sintaktik konstruktsiyalar va stilistik vositalar voqelikni muayyan nuqtai nazardan talqin qilish imkonini beradi. Masalan, bir xil voqea turli gazetalarda turlicha ifodalanishi mumkin. Bu esa diskurs orqali ideologik konstruktsiya shakllanishiga olib keladi. Fairclough nazariyasida diskursning yana bir muhim jihati intertekstuallik tushunchasi bilan bog‘liqdir. Intertekstuallik matnlar o‘rtasidagi aloqani ifodalaydi. Ommaviy axborot vositalarida chop etilgan maqolalarda ko‘pincha boshqa matnlarga murojaat qilinadi yoki ulardan

[5] Fairclough N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. – London: Routledge, 2014. – 511 p.

iqtibos keltiriladi. Bu jarayon matnning semantik mazmunini boyitadi va uning kommunikativ ta’sirini oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zbek va ingliz matbuoti diskursida ma’no konstruktsiyasining shakllanishida sezilarli lingvistik farqlar mavjud. Ingliz matbuotida negativity, timeliness va impact kabi yangilik qiymatlari ustunlik qilsa, o‘zbek matbuotida positivity, personalization va proximity asosiy o‘rinni egallaydi. Ingliz matnlarida tanqidiy va muammoga yo‘naltirilgan diskurs, o‘zbek matnlarida esa yutuq va rivojlanishga qaratilgan diskurs kuzatiladi. Leksik tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek matnlarida baholovchi sifatlar va kuchaytirgichlar ko‘proq qo‘llansa, ingliz matnlarida yumshatgich va evidensial belgilar ustunlik qiladi. Fairclough va Mahmudov nazariyalari asosida olib borilgan tahlil media diskursning ideologik va madaniy jihatdan shartlanganligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bednarek M., Caple H. The Discourse of News Values: How News Organizations Create Newsworthiness. – New York: Oxford University Press, 2017. – 302 p.
2. Biber D. Variation Across Speech and Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – 312 p.
3. Fairclough N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. – London: Routledge, 2014. – 591 p.
4. Fairclough N. Language and Power. – London: Longman, 2015. – 312 p.
5. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Fan, 1992. – 128 b.
6. Mahmudov N. O‘zbek tili nazariy grammatikasi. Sintaksis. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 232 b.
7. Mahmudov N. O‘zimiz va tilimiz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997. – 176 b.
8. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Fan, 2009. – 160 b.
9. Dexqonova A. O‘zbek va ingliz tilidagi iboralarning pragmatik analizi // Filologiya masalalari. – 2025. – №1-M1. – B. 44-52.
10. Vašát P. Kritická diskursivní analýza: Sociální konstruktivismus v praxi // AntropoWEBZIN. – 2008. – Vol. 4. – No 2-3. – S. 101-112.